



**ALEKSANDR FAYNBERG SHE'RIDA "PAHTAKOR-79" FOJEASINING  
BADIY TALQINI**

*Sadoqatxon Mirzajonova Ulug'bek qizi*

[mirzajonovasadoqat24@gmail.com](mailto:mirzajonovasadoqat24@gmail.com)

*O'zDJTU, Lingvistika (ingliz tili) yo'nalishi magistratura bosqich talabasi*

*Toshkent, O'zbekiston*

**Annotatsiya.** Mazkur maqolada Aleksandr Faynbergning "Paxtakor-79 futbol jamoasi xotirasiga" she'ri asosida mashhur "Paxtakor-79" fojeasining badiiy talqini tahlil qilinadi. Tadqiqot davomida she'rda sport, inson taqdiri va fojea bilan bog'liq kechinmalar qanday ifodalangani ko'rib chiqiladi. Shoir voqeani oddiy voqea sifatida emas, balki insoniy xotira va milliy qayg'u bilan bog'liq hodisa sifatida tasvirlaydi. She'rda futbol o'yini, stadion, parvoz va osmon obrazlari orqali fojea chuqur ma'no kasb etadi. Tahlil shuni ko'rsatadiki, Faynberg ushbu fojeani insoniy tuyg'ular, sport ruhi va xotira orqali badiiy ifodalashga harakat qilgan.

**Kalit so'zlar:** Paxtakor-79, fojea, badiiy talqin, xotira, sport obrazlari, inson kechinmalari.

**Abstract.** This article examines the artistic interpretation of the "Pakhtakor-79" tragedy in Alexander Feinberg's poem dedicated to the Pakhtakor football team. The study analyzes how the themes of sport, human destiny, and tragedy are reflected in the poem. The poet presents the event not only as a historical accident but also as a moment of collective memory and emotional loss. Through images such as the football field, the stadium, flight, and the sky, the poem conveys a deeper meaning of the tragedy. The analysis shows that Feinberg expresses the tragedy through human emotions, the spirit of sport, and the idea of remembrance.

**Keywords:** Pakhtakor-79, tragedy, artistic interpretation, memory, sport imagery, human emotions.



**Аннотация.** В данной статье рассматривается художественное осмысление трагедии «Пахтакор–79» в стихотворении Александра Файнберга, посвящённом футбольной команде «Пахтакор». В исследовании анализируется, как в стихотворении отражены темы спорта, человеческой судьбы и трагического события. Поэт показывает эту трагедию не только как исторический факт, но и как часть коллективной памяти и общего горя. Образы футбольного поля, стадиона, полёта и неба помогают передать глубокий смысл произошедшего. Анализ показывает, что Файнберг передаёт трагедию через человеческие чувства, дух спорта и память о погибших.

**Ключевые слова:** Пахтакор–79, трагедия, художественное осмысление, память, спортивные образы, человеческие переживания.

## KIRISH

Adabiyot ko‘pincha tarixiy voqealar va inson taqdirleri bilan bog‘liq hodisalarni yoritishda muhim rol o‘ynaydi. Ayrim voqealar jamiyat xotirasida chuqur iz qoldiradi va bunday voqealar ko‘pincha badiiy asarlarda ham aks etadi. Shoir va yozuvchilar bunday hodisalarni tasvirlash orqali insoniy tuyg‘ularni, qayg‘u va xotira hissini ifodalashga harakat qiladilar. 1979-yilda yuz bergan “Paxtakor–79” fojeasi O‘zbekiston sport tarixidagi eng og‘ir voqealardan biri hisoblanadi. Futbol jamoasini olib ketayotgan samolyot halokati natijasida jamoa a‘zolari halok bo‘lgan. Bu voqea nafaqat sport jamoasi, balki butun jamiyat uchun katta yo‘qotish bo‘lgan. Aleksandr Faynberg ushbu voqeani o‘z she’rida badiiy tarzda yoritgan shoirlardan biridir. “Paxtakor–79 futbol jamoasi xotirasiga” she’rida shoir futbol o‘yini, stadion va parvoz obrazlari orqali fojeani tasvirlaydi. She’rda sport ruhining davom etishi va inson xotirasida qoladigan izlar ifodalanadi.

Mazkur maqolaning maqsadi Aleksandr Faynbergning ushbu she’rida “Paxtakor–79” fojeasi qanday badiiy vositalar orqali ifodalanganini tahlil qilishdir.



## МУНОКАМА

Aleksandr Faynbergning “Paxtakor – 79 futbol jamoasi xotirasiga” she’ri sport bilan bog‘liq fojeani badiiy obrazlar orqali ifodalovchi asar hisoblanadi. Shoir voqeani bevosita tasvirlashdan ko‘ra, futbol o‘yini, stadion va osmon kabi obrazlar orqali fojeaning ruhiy ta’sirini ko‘rsatishga harakat qiladi. Shu sababli she’rda sport manzaralari bilan fojea xotirasi bir-biri bilan uyg‘un holda tasvirlanadi.

“Chimzorda o‘ynaydi-o‘ynaydi shamol,  
To‘p uchar, to‘p uchar bamisli xayol.”

Bu satrlar bir qarashda oddiy futbol o‘yinini tasvirlayotgandek tuyuladi. Ammo bu yerda shamol va to‘p obrazlari ramziy ma’noga ega. Shamol stadiondagi hayotning davom etayotganini bildiradi. To‘pning “xayol” bilan taqqoslanishi esa o‘tgan voqealarning xotirasi hanuz yashab kelayotganini anglatadi. Shoir shu tarzda stadionni faqat sport maydoni emas, balki xotira makoni sifatida tasvirlaydi.

“Naqadar zo‘r zarba darvoza tomon,  
Hayotni gol bilan yutadi futbol.”

Bu yerda futbol o‘yini inson hayotining ramziga aylanadi. Gol urish g‘alabani anglatadi. Shoir futbol orqali insonning hayotdagi kurashi va g‘alabaga intilishini ko‘rsatadi. Futbol o‘yini bu yerda sport bilan cheklanmaydi, balki insonning maqsad sari harakatini ifodalovchi obraz sifatida tasvirlanadi.

“To‘r titrar, guvillar seldek olomon,  
Yoshgina hujumchi yugurar shodon.”

Bu satrlarda futbol o‘yining eng hayajonli lahzalari tasvirlanadi. Olomonning guvillashi stadiondagi hayajonni ko‘rsatadi. Yosh hujumchining



quvonch bilan yugurishi esa sportchilarning kelajakka bo‘lgan umidini ifodalaydi. Shu orqali shoir futbolchilarning orzulari va hayotga bo‘lgan ishonchini tasvirlaydi.

“Uning-chun ochiqdir endi sharq-u g‘arb,  
Ochiqdir janub-u shimol begumon.”

Bu satrlar sportchining oldida keng imkoniyatlar borligini ko‘rsatadi. Dunyoning barcha tomonlari unga ochiqdek tasvirlanadi. Shoir bu tasvir orqali yosh sportchilarning orzulari va kelajakka bo‘lgan umidini ko‘rsatadi. Shu bilan birga, o‘quvchi bu orzular fojea tufayli amalga oshmay qolganini anglaydi.

“Shunchaki Minskka uchar samolyot,  
Sen uni kuzatib qo‘ygin intizor.”

Bu satrlar oddiy parvoz tasviridek ko‘rinadi. Ammo o‘quvchi bu parvoz fojea bilan yakunlanganini biladi. Shu sababli satrlar ortida yashirin fojea seziladi. Shoir voqeani ochiq aytmaydi, balki uni oddiy voqea sifatida tasvirlab, o‘quvchiga chuqurroq ta’sir o‘tkazadi.

“Osmonda tarqaldi to‘qnashuv abri,  
Xudo sinar ekan bandaning sabrin.”

Bu satrlar voqeaning eng og‘ir lahzasini bildiradi. “To‘qnashuv abri” fojeaning ramziy tasviridir. Shoir voqeani aniq tafsilotlar bilan emas, balki obrazli ifoda orqali tasvirlaydi. Bu esa fojeaning ruhiy ta’sirini kuchaytiradi.

“Jarima maydonin kesib chap yondan  
To‘pni o‘ng qanotga tepib havolat.”



Bu satrlar futbol o‘yining davom etayotganini bildiradi. Shoir shu orqali hayot davom etishini ko‘rsatadi. Sport ruhi fojeaga qaramay yashab qoladi. She’rning eng ta’sirli qismi esa oxirgi satrlarda namoyon bo‘ladi.

“Qayg‘urma, biz hamon o‘ynaymiz futbol,  
Faqat moviy osmon – bizning stadion.”

Bu satrlar fojeaning badiiy talqinini yakunlaydi. Shoir halok bo‘lgan futbolchilarni go‘yo osmon stadionida o‘ynayotgan sportchilar sifatida tasvirlaydi. Bu obraz fojeani qayg‘u bilan emas, balki hurmat va xotira bilan yodga olishga xizmat qiladi. Moviy osmon esa cheksiz makon va abadiylik timsoli sifatida namoyon bo‘ladi. She’r oxirida boshidagi satrlarning yana takrorlanishi ham muhim badiiy usul hisoblanadi.

“Chimzorda o‘ynaydi-o‘ynaydi shamol,  
To‘p uchar, to‘p uchar bamisli xayol.”

Bu takror voqea xotirasining davom etishini bildiradi. Stadiondagi shamol va to‘p obrazi fojea unutilmasligini anglatadi. Shu tarzda shoir sport jamoasi xotirasini badiiy obrazlar orqali abadiylashtiradi. Umuman olganda, ushbu she’rda futbol, stadion, parvoz va osmon kabi obrazlar bir-biri bilan bog‘liq holda ishlatilgan. Bu obrazlar orqali shoir nafaqat fojeani tasvirlaydi, balki inson xotirasida qoladigan hurmat va ehtiromni ham ifodalaydi.

## XULOSA

Tahlil shuni ko‘rsatadiki, Aleksandr Faynberg “Paxtakor–79 futbol jamoasi xotirasiga” she’rida fojeani bevosita tasvirlamaydi. Shoir voqeani futbol o‘yini, stadion va osmon obrazlari orqali badiiy tarzda ifodalaydi. She’rda sport ruhining davom etishi, inson xotirasi va fojeaning og‘ir izlari aks etadi. Futbol o‘yini hayot



bilan qiyoslanadi, stadion esa xotira makoniga aylanadi. Natijada ushbu she'r nafaqat sport jamoasining fojeali taqdirini, balki inson xotirasida qoladigan hurmat va ehtiromni ham ifodalaydi. Aleksandr Faynberg ushbu fojeani badiiy obrazlar orqali tasvirlab, uni insoniy xotira bilan bog'liq hodisa sifatida ko'rsatgan.

### ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Файнберг, Александр Аркадьевич. (2014). *Чигирь: стихи и проза*. Ташкент: Akademnashr.
2. Файнберг, Александр Аркадьевич. (1998). *Когда зажигаются звезды*. Ташкент: Издательство литературы и искусства имени Гафура Гуляма.
3. Ахмедов, Баходир. (2019). *Ўзбек спорт тарихи*. Тошкент: Fan nashriyoti.
4. Большая российская энциклопедия. (2017). *Файнберг Александр Аркадьевич*. Москва: Большая российская энциклопедия.
5. Хализев, Валентин Евгеньевич. (2004). *Теория литературы*. Москва: Высшая школа.
6. Кожинов, Вадим Валерианович. (2002). *Русская поэзия XX века*. Москва: Алгоритм.
7. Ziyouz.com elektron kutubxonasi. Aleksandr Faynberg she'rlari.  
<https://ziyouz.com>